



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yilning yanvar-iyun oylarida investitsion faoliyoti oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,7 %ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida 5 923,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 60,8 %i yoki 3 604,3 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 39,2 % yoki 2 319,6 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 1,5 % punktga kamayib, 8,4 %ni yoki 499,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 424,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 91,6 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



Markazlashgan investitsiyalar

499,2
mlrd. so'm

5 923,9

mlrd. so'm
o'sish sur'ati
112,7 %



Markazlashmagan investitsiyalar

5 424,7
mlrd. so'm

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar

2 295,7
mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar

72,9
mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar


2 222,8
mlrd. so'm

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



2021- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 557,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,3 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,8 %i yoki 761,7 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 120,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 % punktga kamayib, 48,8 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm

283,7

Respublika byudjeti

84,8

Suv ta'minoti va
kanalizatsiya tizimlarini
rivojlantirish jamg'armasi

57,8

Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi

72,9

O'zR kafolati ostida xorijiy
kreditlar

1557,9

Korxona mablag'i

882,3

Tijorat banklari kreditlari va
boshqa qarz mablag'lari

1120,2

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy
investitsiyalar

1025,2

Boshqa xorijiy investitsiya
va kafolatlanmagan
kreditlar

761,7

Aholi mablag'lari

Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 882,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,9 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 72,9 mlrd. so'm (1,2 % va 0,9 % punktiga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1025,2 mlrd. so'm (17,3 % va 1,6 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 283,7 mlrd. so'm (4,8 % va 2,0 % punktiga kamaygan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 84,8 mlrd. so'm (1,4 % va 0,4 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

*Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,2 %ga o'sdi. Bunday yuqori o'sishga Qo'qon shahrida joylashgan «**Kokand Milk Quality**» MCHJ tomonidan sutni qayta ishslashni kengaytirish hamda Uchko'prik tumanida joylashgan "GRAND ART CLASS" MCHJ tomonidan suniy teri ishlab chiqarishni kengaytirish loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.*

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan ivesititsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,7 %ni tashkil etib, **Bahodir log'on textile MCHJ qo'shma korxonasi** tomonidan o'simlik yog'i ishlab chiqarish va **Baraka International Trade Group" MCHJ qo'shma korxonasi** tomonidan hunarmandchilik va turizm markazi tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Farg'ona viloyati:	5923,9	4,8	26,3	12,9	38,8	1,4	14,8	1,0
shaharlar:		8,0	30,6	11,4	29,6	2,5	13,6	
Farg'ona sh.	1367,0	5,1	28,0	4,8	40,9	0,2	21,0	1,0
Qo'qon sh.	722,2	0,9	25,6	4,4	61,2	0,8	7,0	
Quvasoy sh.	425,6	3,2	24,8	18,2	25,9	0,6	27,3	
Marg'ilon sh.	283,9							
Tumanlar:		2,8	15,2	20,4	17,5	0,4	43,7	
Oltiariq	180,5	2,1	8,9	25,2	57,8	0,7	5,3	
Qo'shstepa	187,5	3,1	20,4	17,5	40,0	1,5	17,6	
Bag'dod	174,2	2,5	15,7	22,5	20,4	2,2	36,8	
Buvayda	125,0	2,7	1,3	7,8	87,7	0,4	0,1	
Beshariq	421,7	2,3	23,2	29,9	26,3	1,1	17,2	
Quva	170,9	7,3	44,6	7,8	32,7	0,7	7,0	
Uchko'prik	318,5	2,2	24,1	19,3	31,3	10,7	12,4	
Rishton	95,2	38,8	23,5	11,3	7,2	6,3	12,9	
So'x	56,7	2,9	7,7	9,5	53,8	1,5	24,5	
Toshloq	187,1	2,7	14,4	15,3	51,8	1,7	14,2	
O'zbekiston	353,1	1,8	63,1	2,9	24,9	0,9	6,5	
Farg'ona t	395,0	1,9	37,5	17,2	20,9	0,6	22,0	
Dang'ara	279,1	3,0	7,6	60,1	26,1	2,1	1,0	
Furqat	116,8	20,6	11,1	35,3	5,8	1,9	25,4	
Yozyovon	64,1	4,8	26,3	12,9	38,8	1,4	14,9	

*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2021- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiv kapitalga investitsivalar



o'sish sur'ati

106,6 %

Buvayda
tumani

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

125,0

Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,1 %

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*

7,1 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

421,7

o'sish sur'ati

110,3 %

Beshariq tumani

Quva tumani

o'sish sur'ati

105,6 %

Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,9 %

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*

5,4 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

318,5

o'sish sur'ati

115,4 %

*Uchko'prik
tumani*

Rishton tumani

o'sish sur'ati

125,4 %

Farg'ona viloyatidagi ulushi

1,6 %

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*

1,0 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

56,7

o'sish sur'ati

103,0 %

So'x tumani

*Toshloq
tumani*

o'sish sur'ati

125,5 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

187,1

Farg'ona viloyatidagi ulushi

3,2 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



o'sish sur'ati

100,7 %

O'zbekiston
tumani

Far'ona
tumani

o'sish sur'ati

124,3 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

395,0

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

279,1

o'sish sur'ati

100,3 %

Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish sur'ati

100,0 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

116,8

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm


64,1

o'sish sur'ati

100,1 %

Yozyovon
tumani

**2021- yil yanvar-iyun oylarida
investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da**



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 136,8 %ga o'sib, Farg'ona shahrida kuzatildi. Bu asosan Koreya xalqaro universiteti filialini ochishni tashkil qilish va sement ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq.

Shuningdek, Toshloq tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,5 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Expo color prin teks" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ip yigiruv dastgohlari o'rnatish hamda tumandagi kichik korxona va fermer xo'jaliklari tomonidan issiqxonalar tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Qo'qon shahri asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 177,0 %ni tashkil etishi, "INDORAMA KOKAND TEXTILE" AJ XK tomonidan kalava ip ishlab chiqarishni tashkil etish va "LIFE IMPORT" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tibbiy mahsulotlari (shprits, tibbiy qo'lqop, tibbiy sistema) ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, (%)da



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 2 919,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 49,3 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 2 582,5 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,6 %) va boshqa xarajatlarga 422,4 mlrd. so'm (7,1 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buvayda tumanida kuzatildi – 66,2 % yoki 82,7 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quyi daraja Uchko'priy tumanida kuzatilib, 20,2 %ni yoki 64,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Quvasoy shahrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 77,8 % yoki 331,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)

Yangi qurilish-
58,7 %

Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 20,7 %

Boshqa yo'nalishlar -
20,6 %

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3 474,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 58,7 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 225,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 20,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 20,6 %, ya'ni 1 223,2 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Jami hajmdagi ulushi %

		<i>Qurilish montaj ishlari</i>	<i>Mashina, uskuna, inventarlar</i>	<i>Boshqa xarajatlar</i>
	Farg'ona viloyati	43,6	49,3	7,1
	shaharlar:			
	Farg'ona	53,4	42,7	3,9
	Qo'qon	57,2	42,3	0,5
	Quvasoy	20,2	77,8	2,0

	Marg'ilon	40,3	58,0	1,7
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	33,7	55,9	10,3
	Qo'shtepa	40,0	53,9	6,1
	Bag'dod	40,0	46,8	13,2
	Buvayda	66,2	26,7	7,2
	Beshariq	22,8	73,1	4,1
	Quva	39,1	53,5	7,4
	Uchko'prik	20,2	77,4	2,4
	Rishton	59,5	22,9	17,6
	So'x	57,2	29,4	13,4
	Toshloq	34,9	48,1	17,0
	O'zbekiston	29,5	41,9	28,6
	Farg'ona	53,4	41,1	5,5
	Dang'ara	46,6	35,7	17,6
	Furqat	75,3	11,7	13,0
	Yozyovon	55,4	30,1	14,6

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan


2 645,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 44,7 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish - 960,0 mlrd. so'm (16,2 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish - 712,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 12,0 %).
- Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlar ishlab chiqarish - 297,3 mlrd. so'm (5,0 %).

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi jami 484,5 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 8,2 %i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 8,2 %i yoki 483,2 mlrd. so'mi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasiga tegishlidir.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun oylarida 2 295,7 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 38,8 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 197,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 1 098,1 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


mlrd. so'm

	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
Farg'ona viloyati	2295,7	1120,2	72,9	1102,6
Farg'ona sh.	404,4	246,2	56,6	101,6
Qo'qon sh.	295,4	177,5		117,9
Quvasoy sh.	260,4	9,1	9,8	241,5
Marg'ilon sh.	73,4	0,4		73,0
Oltiariq t.	31,5	6,1		25,3
Qo'shtepa t.	108,3	4,0	6,5	97,8
Bag'dod t.	69,7	21,3		48,4
Buvayda t.	25,5	14,2		11,5
Beshariq t.	369,7	369,7		0,0
Quva t.	44,9	18,8		26,2
Uchko'prik t.	104,2	0,2		104,0
Rishton t.	29,8	10,9		18,9
So'x t.	4,1	0,0		4,0
Toshloq t.	100,7	7,6		93,1
O'zbekiston t.	182,9	128,5		54,4
Farg'ona t.	98,3	88,6		9,7
Dang'ara t.	58,3	1,2		57,1
Furqat t.	30,5	15,6		14,9
Yozyovon t.	3,7	0,4		3,3



To‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1120,2 mld. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 72,9 mld. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,5 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi



Joriy davrda jami umumiy maydoni 505,5 ming kv.m bo'lgan 2545 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 334,1 ming kv.m bo'lgan 1687 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Viloyat bo'yicha 26,03 km suv tarmog'i ishga tushirilgan bo'lib, ulardan 26,03 km suv tarmog'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Suv tarmog'i qurilishi bo'yicha 12,0 mld. so'm, investitsiyalar o'zlashtirildi.



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi*

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**
249-87-26